


## **YALPI HUDUDIY MAHSULOT**

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-sentabrida Toshkent shahri bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 87 815,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-sentabr bilan taqqoslaganda 14,1 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 111,0 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Toshkent shahrining qo'shgan hissasi 16,9 % ga yetdi.



### **Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

		<i>Mlrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
		<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	
I. YAHM		69 360,4	87 815,6	114,1

*shu jumladan:*

	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	62 634,8	79 367,3	114,0
	Mahsulotlarga sof soliqlar	6 725,6	8 448,3	114,7
	<b>Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>62 634,8</b>	<b>79 367,3</b>	<b>114,0</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>26 863,8</b>	<b>34 807,1</b>	<b>115,8</b>
	sanoat	21 221,7	26 888,2	113,8
	qurilish	5 642,1	7 918,9	123,4

		Mird. so'm		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
		2020- yil	2021- yil	
<b>Xizmatlar</b>		35 771,0	44 560,2	112,7
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9 242,8	12 169,0	114,2
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	7 411,3	9 379,3	120,0
	boshqa xizmat tarmoqlari	19 116,9	23 011,9	109,1

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 31 256,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,1% ga yuqoridir.



### Yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va o'sish sur'atlari

2020- yil

26 545,4

-1,7

2021- yil

31 256,7

6,1



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi  
(ming so'm)

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM o'sish  
sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)


Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 90,4 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 9,6 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida sanoat tarmog'i 33,9 % ni, qurilish 10,0 % ni va xizmatlar sohasi 56,1 % ni tashkil qildi.




## **Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

		<b>2020- yil</b>	<b>2021- yil</b>
	<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	90,3	90,4
	Mahsulotlarga sof soliqlar	9,7	9,6
	<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>42,9</b>	<b>43,9</b>
	sanoat	33,9	33,9
	qurilish	9,0	10,0
	<b>Xizmatlar</b>	<b>57,1</b>	<b>56,1</b>
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	14,8	15,3
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	11,8	11,8
	boshqa xizmat tarmoqlari	30,5	29,0




**Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

**2020- yil**





**2021- yil**



YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiliy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari sanoatda – 113,8 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 33,9 %), qurilishda – 123,4 % (10,0 %), xizmatlar sohasida – 112,7 % ni (56,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 114,2 % (15,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 120,0 % (11,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 109,1 % dan (29,0 %) iborat bo'ldi.




**Yanvar-sentabr oyalarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari  
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



YAHM o'sishiga sanoat tarmog'i – 4,2 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrida – 0,3 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,9 f.p. va xizmat ko'rsatish sohasi – 6,6 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrida – 1,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 1,4 f.p. (2020- yilning yanvar-sentabrida – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.




### 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2021- yilning yanvar-sentabrida YAHM deflyatori indeksi 2020- yilning yanvar-sentabridagi narxlarga nisbatan 111,0 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qurilishda – 113,8 % va xizmatlarda – 110,6 % qayd etildi.



## Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



## Yanvar-sentabr oylarida YAHMdagi kichik biznesning ulushi (jamiga nisbatan %da)



2021-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 49,0 %ni tashkil qildi (2020-yilning yanvar-sentabrida – 52,3 %).

YAHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.